


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 061,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **711,7** mlrd. so'mni (**14,1 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 349,3** mlrd. so'mni (**7,7 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 644,4** mlrd. so'mni (**10,7 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 061,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,1 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **85,9 %** va yirik korxonalar hissasiga **14,1 %** to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **27,4 %** ulush bilan **1 388,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **48,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2020- yil Yanvar-avgust
		2021- yil Yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **4 349,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **85,9 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,9 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (97,3 %), Forish (97,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	5061,0	107,1	711,7	104,1	4349,3	107,7
<b>Jizzax sh.</b>	1388,0	101,6	169,8	57,6	1218,2	113,7
<i>tumanlar:</i>	0,0		0,0		0,0	
Arnasoy	99,8	103,0	1,2	78,4	98,6	103,4
Baxmal	779,7	124,9	475,0	150,1	304,8	98,9
G'allaorol	357,3	105,6	9,6	136,1	347,6	104,9
Sharof Rashidov	789,7	101,6	1,2	78,9	788,5	101,7
Do'stlik	168,0	115,4	5,8	119,9	162,1	115,3
Zomin	688,5	103,7	27,6	119,3	660,9	103,1
Zarbdor	183,6	129,7	4,7	114,2	179,0	130,1
Zafarobod	78,6	101,2	1,3	87,2	77,3	101,5
Mirzacho'l	125,0	106,9	3,9	114,7	121,1	106,7
Paxtakor	185,7	108,6	6,3	31,1	179,5	118,9
Forish	168,6	108,0	4,3	100,7	164,4	108,2
Yangiobod	48,3	103,2	1,0	89,3	47,3	103,5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda

60,9



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,1 %** ga oshdi va **711,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda

99,9

98,8

98,4


98,0

Sharof Rashidov

Arnasoy


Zafarobod

Yangiobod




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 349,3 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,7 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,9 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,9 %), Arnasoy (98,8 %), Zafarobod (98,4 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (97,3 %), Forish (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (12,2 %), Paxtakor (3,4 %), Baxmal (60,9 %), Zomin (4,0 %) va Do'stlik (4,0 %) tumanlarida kuzatildi.



**JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2021- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 569,8** ming so'm (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,0** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7 651,6** ming so'm), Baxmal (**4 867,3** ming so'm), Zomin (**4 100,6** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3 466,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	3569,8	105,0
Jizzax sh.	7651,6	99,8
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2137,7	101,5
Baxmal	4867,3	122,2
G'allaorol	2031,2	103,4
Sharof Rashidov	3466,7	98,9
Do'stlik	2514,3	113,5
Zomin	4100,6	101,4
Zarbdor	2072,7	126,5
Zafarobod	1550,2	99,8
Mirzacho'l	2368,3	105,1
Paxtakor	2440,8	106,5
Forish	1792,2	106,4
Yangiobod	1682,6	101,4

**Asosiy tarkib, foizda**




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **837,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **35,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **261,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **15,6 %** ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **576,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **25,4 %** ga oshdi) .


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-avgust oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **261,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **576,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	837,7	135,1	261,4	115,6	576,3	125,4
Jizzax sh.	189,1	189,8	189,1	120,6	0,0	0,0
tumanlar:						
Arnasoy	25,4	113,1	0,5	104,1	24,9	118,9
Baxmal	80,5	103,4	4,2	220,9	76,3	113,7
G'allaorol	87,0	109,4	12,4	136,7	74,6	156,6
Sharof Rashidov	89,1	90,6	0,0	0	89,1	136,4
Do'stlik	43,5	194,7	8,5	105,6	35,0	127,7
Zomin	122,9	117,8	15,7	122,3	107,2	189,0
Zarbdor	73,5	226,4	8,5	103,8	65,0	137,6
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0	0,0	0
Mirzacho'l	24,6	131,9	2,8	100,7	21,9	115,4
Paxtakor	48,8	219,1	15,5	110,5	33,3	120,6
Forish	37,6	126,6	3,8	100,7	33,8	124,0
Yangiobod	15,5	124,6	0,3	102,6	15,2	102,3

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



5,2 mlrd.  
so'm

Tuzlamalar



100,3  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



5,7  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

40,2  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



11,0  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

19,7  
mlrd. so'm



Tuxum

30,8  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

17,6  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2,0  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **261,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**100,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

6,4  
mlrd. so'm



Ziravorlar

19,3  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **576,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **399,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **163,0** mlrd. so'mni, otlar **10,7** mlrd. so'mni, parrandalar **2,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **82,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,6 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	82840,6	104,6	82840,6	104,6
Jizzax sh.	40546,1	104,8	40546,1	104,8
tumanlar:	0,0		0,0	
Arnasoy	587,6	102,4	587,6	102,4
Baxmal	1550,4	102,2	1550,4	102,2
G‘allaorol	5081,0	104,3	5081,0	104,3
Sh. Rashidov	14698,1	104,7	14698,1	104,7
Do‘stlik	2823,6	104,2	2823,6	104,2
Zomin	5704,9	104,4	5704,9	104,4
Zarbdor	2566,8	104,5	2566,8	104,5
Zafarobod	745,2	103,2	745,2	103,2
Mirzacho‘l	3242,2	105,0	3242,2	105,0
Paxtakor	2701,2	104,5	2701,2	104,5
Forish	2087,6	104,1	2087,6	104,1
Yangiobod	505,9	103,6	505,9	103,6

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 401,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,5** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **346,0** mlrd. so'mni (**17,1** % ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 055,0** mlrd. so'mni (**0,3** % ga kamaydi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**126,2 %**), Baxmal (**221,9 %**) va Do'stlik (**544,7 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1401,0	103,5	346,0	117,1	1055,1	99,7
Jizzax sh.	773,0	104,7	180,0	126,2	593,0	99,6
tumanlar:						
Arnasoy	2,4	20,9	0,1	0,6	2,4	97,4
Baxmal	122,9	179,1	98,8	221,9	24,1	100,0
G'allaorol	36,5	104,3	0,2	28,0	36,3	106,1
Sh. Rashidov	82,5	86,2	0,1	0,6	82,5	97,8
Do'stlik	128,5	184,7	65,8	544,7	62,7	109,0
Zomin	136,3	95,2	0,0	0,7	136,3	98,6
Zarbdor	17,3	40,7	0,0	0,1	17,3	97,2
Zafarobod	9,3	39,6	0,2	1,4	9,1	95,4
Mirzacho'l	3,4	18,1	0,1	0,7	3,3	96,3
Paxtakor	12,8	45,8	0,3	2,0	12,5	98,6
Forish	69,5	96,2	0,4	132,3	69,1	96,0
Yangiobod	6,5	93,4	0,1	28,5	6,4	95,4

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **1 055,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **0,3** % ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **75,3** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**100,0** %), Yangiobod (**99,1** %), G'allaorol (**99,4** %), Forish (**99,5** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**19,6** %), Do'stlik (**48,8**%) tumanlariga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:72-221-51-26